

SHE'RIYAT MATNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberganova Mohigul Alisher qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti Ingliz tili o‘qitish metodikasi o‘qituvchisi

Okhunov Asilbek Olimjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti Ingliz tili o‘qitish metodikasi o‘qituvchisi

Annotation: Mazkur maqolada she’riyat matning pragmatik xususiyatlari, tarixi, o‘ziga xosligi hamda ayrim jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: poetik nutq, pragmatika, leksema, kommunikativ niyat, pragmatik maydon.

KIRISH

Tilshunoslikda semantika sohasining og‘zaki nutqning ijtimoiy lingvistik va boshqa nolingvistik komponentlarini yetarli darajada tushuntira olmasligi pragmatikaning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. “Pragmatika” yunoncha *pragma* so‘zidan olingan bo‘lib, “*ish*”, “*harakat*” degan ma’nolarni bildiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Pragmatika fani shakllanishining ilk bosqichlari XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridagi Ch.Pirs, U.Djeyms, D.Dyui, Ch.Morris kabi olimlarning falsafiy konsepsialariga asoslanadi. Dastlab pragmatika tushunchasi lisoniy vaziyat strukturasini (so‘zlovchi va tinglovchi munosabatlari sifatida) dinamik protsessual aspektida o‘rganishga bag‘ishlangan semiotik ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanila boshlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ayrim tilshunoslar pragmatikani matndagi munosabatlarga bog‘liq ravishda o‘rganuvchi fan deb hisoblasalar, boshqalar uni ko‘zlagan maqsadni qo‘lga kiritish uchun lisoniy vositalardan foydalanish usullari, deb e’tirof etdilar. Qanday bo‘lmisin, pragmatika nutq jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda ko‘riladi va sotsiolingvistika hamda semantika bilan uyg‘unlikda ish olib boruvchi tadqiqotning yangi sohasi hisoblanadi.

Bugungi kun tilshunosligida nazariy pragmatika, pragmalingvistika, matn pragmatikasi, tarjima pragmatikasi yuzasidan bir qator tadqiqot ishlari amalga

oshirilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida poetik nutq pragmatikasi va uni ifoda etuvchi til birliklarining strukturaviy xususiyatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. She’riyat va pragmatika, bir qarashda, mazmun-mohiyati jihatidan bir- biridan farqli bo‘lgan tushunchalardek tuyuladi. Pragmatikada maqsadga muvofiqlik, natijaga yo‘naltirilganlik, harakatning afzalligi yetakchilik qilsa, she’riyatda yuksak ijodkorlik, hissiyot, keng dunyoqarash, badiiy ifoda ustunlik qiladi. Pragmatikaning asosiy yo‘nalishi bo‘lgan turli harakatlar, ya’ni savollar, xabarlar, va’dalar, minnatdorchilik, maslahat, so‘rovlар va boshqa muloqot jarayonlari poetik nutqda muallifning badiiy ifodasi ostida namoyon bo‘ladi. She’riy matnning pragmatik potensiali tilning pragmatik ta’sir kuchi sifatida muallifning lisoniy vositalardan o‘rinli va muayyan maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llashini taqozo etadi.

Ma’lumki, she’riy matnda muallifning (axborot uzatuvchisining) kommunikativ maqsadi muloqot jarayonining asosiy xarakteristikalaridan biri hisoblanadi va bunday maqsad go‘yo ataylab hosil qilingan kommunikativ intensiya sifatida she’riy matn strukturasida va mazmunida lisoniy voqelanadi. Bunday kommunikativ maqsadning yana bir xususiyati u matnning mazmuniy va struktur tuzilishiga bog‘liqligida, retseptorgako‘rsatgan kommunikativ ta’sirida o‘z aksini topadi.

Poetik nutqda so‘zlovchining ruhiyholati, uning berilayotgan axborotga nisbatan munosabati tinglovchiga o‘z ta’sirini o‘tkazib, ma’lum harakatga undash niyati ifodalanadi. *Har qanday she’riy matnda muallifning xususiy emotsiyal munosabati, ichki his- tuyg‘ulari, ruhiy holati hamda bosh maqsadi bevosita she’r misralarida ifodalangan gaplar mazmunidan anglashilib turadi. Shunga ko‘ra, she’riy matn pragmatikasining quyidagi turlari farqlanadi:*

- konstativ (xabar, ta’rif, tasdiq, darakberish mazmuni ifodalanganda);
- predikativ (taxmin, bashorat qilishmazmuni ifodalanganda);
- direktiv (buyruq, iltimos, savol, ta’qib kabi mazmunlar ifodalanganda);
- komissiv (va’da berish, taklif qilish);
- aknolejment (tabrik, takalluf, ehtiromkabilar).

She’riy matnning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish asliyat tilidagi lisoniy birliklarning kommuniktiv mohiyatini aniqlash, bu o‘rinda lirik qahramon xarakterini, kommunikativ intensiyasini, pragmatik maqsadni ifodalash jarayonida yuz beradigan muloqot vaziyatining ta’siri, shu orqali badiiy asarning pragmatik mazmunini lisoniy va nolisoniy vositalar orqali ifodalanish usul va vositalarini aniqlash imkoniyatini beradi. Bunda so‘zning «lug‘aviy» ma’nosini ifodalanishning mazmunini aniqlash uchun xizmat qilsa, kontekstual ma’nosini material ifodalagan belgining intensionalligini, ya’ni biror maqsadga yo‘naltirilganligini, konkret predmetga aloqadorligini bildirib keladi. Binobarin, fikrning semantik-sintaktik qurilishi umumiy

holda muallifning kognitiv bilimi va kommunikativ maqsadlarini o‘z ichiga oluvchi pragmatik tajribasini aks ettiradi.

She’riy matnda, birinchi o‘rinda, muallifning so‘z qo‘llash mahorati turadi. Bu esa poetik nutq pragmatikasi bilan tilshunoslikning leksikologiya sahasining o‘zaro munosabatini ifoda etadi.

Leksema sememasining tarkibiy qismlarida neytral, uslubiy bo‘yoqdorlik va ularning nutqdagi qo‘llanish vazifasiga ko‘ra his-hayajon belgilari (leksema sememasiga xos his-hayajon semantikasi) ning mavjud yoki mavjud emasligi bilan lingvistik pragmatikaning zahirasi sanaladi [2.41]. She’riy matnda muallif o‘z ichki maqsadini nutqda bayon qilish uchun uslubiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan leksemalardan foydalanadi. Leksik birliklarning pragmatik xususiyatlari lug‘aviy strukturada mavjud bo‘lib, ijobiy yoki salbiy bo‘yog‘i pragmatik ma’noni shakllantirish uchun xizmat qiladi. She’riy matnda muallif niyati va kontekst talabi bilan leksemaning o‘z ma’nosini o‘zgarib, tagma’no birinchi planga ko‘tariladi. Tagma’no so‘zlovchining kommunikativ maqsadini amalga oshiradi.

Buni M.Yusufning “Qora quyosh” dostonidan keltirilgan parchada ko‘rishimiz mumkin:

Menga juda aziz

Uning siymosi,

Bir qarasam,

Yo‘qdek sira qiyosi.

U bir bag‘ridaryo,

Bir bag‘ritoshdir,

U bir *quyosh*

Ammo -

Qora quyoshdir! [3.197]

Shoir “Qora quyoshdir!” misrasida lirik qahramonni quyoshga qiyoslamoqda, biroq, tabiatda Quyosh qora emas, sariq rangdabo‘lib, olamga teng nur taratadi. Barcha tirik jonga issiqlik quvvatini berib, hayot baxsh etadi. Nima uchun shoir dostonda Quyoshni “sariq” emas, “qora” debtasvirlagan? - degan savol tug‘iladi.

Tilshunos olimlar H.Ne’matov va R.Rasulov semema tarkibiy qismlarini atash, ifoda hamda vazifa semalariga ajratadi. Bu semalar ichida ifoda semasi ayni pragmatika uchun tadqiqot ob’ekti bo‘ladi. Ularning ta’kidlashicha, atash semalari ob’ektiv olamdagini narsa, buyum, belgi-xususiyat, miqdor kabilarni nomlaydi hamda

kishi xotirasidagi tushunchalar bilan semalar aloqasini belgilaydi. So ‘z kontekstda o‘zining funksional qo‘llanish o‘rnini o‘zgartirishi bilan atash semasi o‘rnida so‘zlovchining konkret munosabatini bayon qiluvchi ifoda ma’nosni birinchi darajali mavqeni egallaydi, natijada pragmatik tahlilga ehtiyoj seziladi [4.40].

Shoir Quyoshni “sariq” emas, “qora” rangda tasvirlab, lirk qahramon xarakteridagi salbiy tomonlarni «qora» so‘zi zamiriga joylagan. Lirk qahramon ta’rifini bunday chizgilar ostida berish orqali shoir sho‘rolardavridagi voqe-a-hodisalar haqida xabar beradi, tinglovchi esa muallifning vogelikka bo‘lgan munosabatini anglaydi va xulosa chiqaradi. Retseptor uzatilayotgan axborotni qabul qilar ekan, she’riy matnda ifodalangan axborotga nisbatan muayyan xususiy munosabatga kirishadi. Natijada muallifning (axborot uzatuvchining) kommunikativ maqsadi axborotni qabul qiluvchining xususiy munosabatlari bilan pragmatik maydonda umumlashadi.

Pragmatik maydon tushunchasi ostida matn muallifining obyektiv borliqqa, shuningdek, o‘zi ifodalayotgan fikrga munosabatini ifodalash funksiyasi nuqtai nazaridan til va nutq birliklarining o‘zaro ma’lum bir sistemanı hosil qilishi nazarda tutiladi [2.140]. Bunda muallifning pragmatik salohiyati yetakchilik qiladi.

Pragmatik salohiyat — bu, matndagi ma’lumotning tinglovchiga pragmatik ta’sir o‘tkazishi, ya’ni she’riy matnda aks ettirilayotgan ma’lumotning tinglovchi hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatishi, muayyan emotsiyal reaksiya uyg‘otishidir. She’riy matnning butun tarkibida joylashgan semantik ma’noni ochib berish, badiiy muloqotni amalga oshirishda muayyan til resurslarini to‘g‘ri tanlash, badiiy va estetik muammolarni yechishda ramzlardan o‘rinli foydalanishni talab qiladi. Chunki she’riy asarning ramziy ma’nosni muallifning o‘ziga xosligini namoyon qilishning asosiy sohasi vamuallifning o‘zi badiiy haqiqatning yaratuvchisi ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, she’riy matnda shoirning qabul qiluvchi uchun muhim bo‘lgan ma’lumotni uzatishi, qabul qiluvchiga yetkazishi til birliklarida namoyon bo‘lsa, axborotni qabul qiluvchining qay tarzda qabul qilishi va unga bo‘lgan munosabati poetik pragmatikani yuzaga keltiradi. Poetik pragmatikada nutqni shakllantirish va tushunish uchun harakat qilish tizimi mavjud bo‘lib, unda muallif bilan kitobxon o‘rtasida axborot almashiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh. Safarov. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2018. – 40-41-bet.
2. Bazhenova I.S. Emoziya, pragmatika, matn. M.: "Menejer" nashriyoti, 2013. - 392 b.
3. K. Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – 8-bet.
4. Sh.Safarov. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. – Samarqand, 2017. – 18-19-bet.
5. www.natlib.uz